




## Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

# 2018 yilning yanvar-iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - iyun oylarida Jizzax viloyatida jami **700,2 mlrd.** so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **105,7** foizni tashkil etdi.


Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **12,0 mlrd.so'm** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,8** foizni hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **83,8** foizni tashkil etdi.

Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **58,0** foizi yoki **406,4 mlrd.so'm** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **118,8** foizni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **40,2** foiz yoki **281,6 mlrd.so'm** to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,9** foizni tashkil etdi.



**Jami qurilish ishlari 100%**

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan foizda)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi 1,8 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 58,0 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa 40,2 foizga qurilish ishlari

bajarildi.

Jizzax shahrida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi eng katta bo'ldi - 31,7 foizni. Mazkur hududda yirik tashkilotlarning ulushi 1,7 foiz va norasmiy sektorning ulushi 7,3 foizni tashkil etdi.

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nishatan foizda)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Forish hamda Paxtakor tumanlarida kuzatildi.


Mirzacho'l tumanida yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o'sish surati o'tgan yilning mos

davriga nisbatan 106,5 foiz bo'lishi ta'mirilandi.

Jizzax shahridagi yuqori o'sish surati, yani 106,3 foiz ko'p qavatli uylar qurilishi, va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so'm)

#### jami qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi **qurilish loyihalarini** ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 80,4 foizni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 foiz punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 13,6 foizni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaydi, mahsus qurilish ishlari hissasiga esa 6,0 foizga to'g'ri keldi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi**  
*(jamiga nisbatan foizda)*

